RAQAMLI DAVRDA OILAVIY TARBIYA MASALALARI

Kadirkulova Muniraxon Mirkarimovna
Guliston Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogoka fakulteti Pedagogika yo'nalishi
2-bosqich talabasi
kadirkulovamunira160@gmail.com
+998998927514

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli davr sharoitida oilaviy tarbiyaning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Raqamli texnalogiyalarning bola shaxsining shakllanishiga ijobiy va salbiy ta'siri yoritiladi. Shuningdek, ota – onaning pedagogik ma'suliyati, media savodxonlik va raqamli xavfsizlikni ta'minlash masalalari ilmiy asosda bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli davr, oilaviy tarbiya, media savodxonlik, internet xavfsizligi, ota – ona ma'suliyati, axborot madaniyati.*

Abstract: *This article analyzes the current issues of family education in the digital age. The positive and negative effects of digital technologies on the formation of a child's personality are highlighted. It also scientifically explains the pedagogical responsibilities of parents, media literacy, and digital safety.*

Keywords: *digital age, family education, media literacy, internet safety, parental responsibility, information culture.*

Kirish

XXI asr axborot va texnologiyalar asri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda internet, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt inson hayotining barcha jabhalariga kirib bordi. Ayniqsa, yosh avlodning dunyoqarashi va tafakkuri shakllanishida raqamli muhitning ta'siri sezilarli darajada ortdi. Shu sababli oilaviy tarbiya jarayonida yangi pedagogik yondashuvlar zarur bo'lib, ota-onalar farzandini

nafaqat an’anaviy qadriyatlar asosida, balki zamonaviy axborot muhitida ham to‘g‘ri yo‘naltira olishi lozim.

Bugungi kunda zamonamiz shiddat bilan rivojlanib, har bir jarayon raqamli texnalogiyalar asosida faoliyat yuritmoqda. Ushbu jarayon eng avvalo xalqning og’irini - yengil, uzog’ini – yaqin qilish uchun xizmat qilish bilan bir qatorda, insonlarda virtual olamga bog’lanish, tashqi muhitdan uzilish hamda internetga qaramlik holatlarini keltirib chiqamoqda. Bu jarayonlar eng avvalo oilaviy muhitga, qolaversa kelajagimiz poydevori bo’lgan farzandlar tarbiyasiga jiddiy ta’sir ko’rsatmay qolmayapdi.

Prezident farzand tarbiyasida oilaning roli juda katta ekanini ta’kidlaydi. Ota-onalar farzandiga nafaqat bilim, balki yaxshi xulq-odob, mehr-oqibat bilan munosabat ko‘rsatishi, ularni to‘g‘ri tarbiyalashi zarurligini aytadi.[1]

Darhaqiqat oilada farzd tarbiyasi uchun ma’sul shaxslar ya’ni ota onalar zamonavi pedagogic bilimlarga ega bo’lishi, hamda farzandining bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etishi, farzandining kelajagini faqatgina moddiy emas balki ma’naviy boyitishi muhim masala hisoblanadi. Shu o’rinda shuni qayta va qayta ta\kidlashimiz kerakki rivojlanga texnalogiyalardan to’g’ri va mazmunli foydalanishni tashkil etish masalasi ham eng avvalo ota – onaning zimmasiga tushadi. Chunki internet online platformalar tog’ri foydalangan insonga faqat va faqat foyda keltiradi. Raqamli texnologiyalar bolalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Onlayn ta’lim platformalari, elektron kutubxonalar, masofaviy kurslar orqali bilim olish imkoniyati kengaydi. Bola mustaqil izlanish, tezkor axborot olish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Pedagog olim N.Muslimovning ta’kidlashicha, “zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantiradi” [3]. Bu esa raqamli vositalardan maqsadli foydalanish tarbiyaviy samaradorlikni oshirishini ko‘rsatadi.

Biroq raqamli vositalardan nazoratsiz foydalanish salbiy oqibatlarga ham olib keladi. Jumladan: internetga qaramlik, muloqot madaniyatining pasayishi, zararli axborotlarning ta'siri, vaqtni samarasiz sarflash, sog'liq bilan bog'liq bir qancha muammolar.

Psixologlarning fikricha, internetdan haddan tashqari foydalanish bolalarda diqqat tarqoqligi, emotsional beqarorlik hamda ijtimoiy faollikning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin [7]. Shu sababli oilada farzandning virtual va real hayot muvozanatini nazorat qilish muhimdir.

Demak, raqamli muhit ikki tomonlama ta'sirga ega bo'lib, undan oqilona foydalanish muhimdir. Bu jarayonda ota – onaning ma'suliyati yanada ortadi. Ya'ni farzandining interberdab fpydalanishiga qatiy taqiqlar qo'ymasdan balki, farzandi bilan do'stona munosabatlarni shakllantirgan holda to'g'ri saytlar va to'g'ri platformalardan foydalanishiga ko'maklashish, internet dasturlaridan to'g'ri foydalana olishini yo'lga qo'yish. Shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilmaslikni o'rgatish kabi ishlarni amalga oshiri lozim. Bundan tashqari bolalar bilan bugungi zamon tiliga mos o'yinlar tashkil etish, misol uchun hozirda urfga kirgan CHELLENJlarni oila davrasida tashkil etish. (Kim ko'p kitob o'qish, faqat ibratli videolar oyligi, ehson oyligi, yaxshilik qilish kuni v.h.k) Ushbu jarayonda ota – onalar farzandlari bilan birgalikda zamonaviy qarashlarini shakllantirish bilan bir qatorda milliy qadryatlarni farzandlar ongiga singdirishga ham erishishlari mumkil bo'ladi.

Shu o'rinda shuni ham ta'kidlash lozimki hozirgi kunda ota - onalar farzandlarini kichiklik davridanoq enagalarga yoki, oilaviy tshkil etilgan muassasalarga qoldirib, o'zlari tirikchilik g'amida bolaning bolalik davrini ota – onani sog'inish tuyg'usi bilan o'tkazishiga yo'l qo'ymoqdalar. "Farzandlarini tirikchilik g'amida enagaga bergan ota – onalar, kelajakda o'zlari ham enagalar qo'lida qolishini o'ylasinlar."[2] Turk yozuvchisi Ahmed Bulutning Uyimiz jannatga aylansin kitobidagi bola tarbiyasiga oid qarashlari hozirki kunga juda ham mos keladiga so'zlar deb

hisoblayman. Chunki farzandga hech bir shaxs ona bergan mehr va e'tiborni bera olmaydi.

Abu Ali ibn Sino ham bola tarbiyasida oilaviy muhitning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlab, "bola tarbiyasi avvalo ota-onaning axloqi va muomalasidan boshlanadi" deb yozgan [4].

Qachonki onalarimiz o'z oldidagi vazifalarini sitqidildan bajarib, farzand kabi buyuk ne'matning tarbiyasiga oliy maqsad kabi qarasalargina virtual olamga qaram bo'lmagan, dunyoqarashi keng shakllangan, raqamli texnalogiyalardan to'g'ri va maqsadli foydalana oladigan farzandlarni voyaga yetkaza olamiz degan fikrdaman.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki, farzand dunyoga keltirgan yoki bo'lajak ota – onalarning har biri pedagogic bilim va mahoratga ega bo'lishi, o'z ustida ishlashi, farzand tarbiyasini bugungi zamon bilan bog'lagan holda turli xil metodlar ishlab chiqishi, eng avvalo o'zi farzandi uchun yaxshi namuna bo'la olishi, hamda ota – onalik vazifasi faqat farzandni dunyoga keltirish va moddiy ta'minlash deb hisoblamasligi, balki farzandga Allohning omonati va buyuk ne'mati deb qarashi, shu bilan birgalikda uni voyaga yetkazishda ma'naviy va ruhiy bo'shliqlarga yo'l qo'ymasligi shart. Shundagina kelajakda yurtimizga va ota – onasiga xizmat qiladigan ma'suliyatli insonlar yetishib chiqadi. Demak, raqamli davrda oilaviy tarbiya nafaqat an'anaviy tarbiya usullarini, balki media savodxonlik, axborot madaniyati va raqamli xavfsizlik ko'nikmalarini ham qamrab olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi O'zbekiston strategiyasi / Sh.M.Mirziyoyev. — Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. — 296-bet.
2. Uyimiz jannatga aylansin / Ahmed Bulut. — Toshkent: "Hilol Nashr", 2022. — 114-bet.
3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / N.A.Muslimov. — Toshkent: "Fan

va texnologiya” nashriyoti, 2015. — 87-bet.

4. Tib qonunlari / Abu Ali ibn Sino. — Toshkent: “Meros” nashriyoti, 1993. — 41-bet.
5. Oila pedagogikasi / R.Mavlonova. — Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2018. — 156-bet.
6. Ijtimoiy pedagogika / M.Toxtaxodjayeva. — Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2010. — 203-bet.
7. UNICEF. “Children in a Digital World” hisoboti. — New York: UNICEF, 2017. — 35-bet.